



URBANIZATION PROCESSES AND DEVELOPMENT OF CITIES IN SURKHONDARYO REGION

Anvar Tursunov

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Senior Lecturer

Termez State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Termez

E-mail: avar061484@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: urbanization, urban-type settlements, Termez city, industry, transport, labor resources, Denov city.

Received: 14.01.24

Accepted: 16.01.25

Published: 18.01.25

Abstract: In the current global context, preserving historical and cultural heritage, studying new traditions developed in history, in particular urbanization processes, and continuing them based on scientific innovations are of urgent importance. In this regard, the article discusses urbanization processes and development of cities in Surkhondaryo region.

SURXONDARYO VILOYATIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA SHAHARLAR RIVOJLANISHI

Anvar Tursunov

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbekiston, Termiz

E-mail: avar061484@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, shahar tipidagi posyolkalar, Termiz shahri, sanoat, transport, mehnat resurslari, Denov shahri.

Annotatsiya: Jahon miqyosida hozirgi davr globallashuv bosqichi sharoitida tarixiy-madaniy merosni saqlash, tarixda rivojlangan yangi an'analarni, xususan, urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish, fan yangiliklari bilan boyitish asosida davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, maqolada Surxondaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari va shaharlar rivojlanishini haqida so'z boradi.

УРБАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ И ГОРОДСКОЕ РАЗВИТИЕ В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Анвар Турсунов

доктор философии (PhD) по истории, старший преподаватель

Термезский государственный педагогический институт

Узбекистан, Термез

E-mail: avar061484@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: урбанизация, поселки городского типа, город Термез, промышленность, транспорт, трудовые ресурсы, город Денов.

Аннотация: На глобальном уровне, на современном этапе глобализации, сохранение историко-культурного наследия, изучение новых традиций, сложившихся в истории, в частности, процессов урбанизации, и обогащение научными инновациями приобретают актуальное значение. В связи с этим в статье говорится о процессах урбанизации и развития городов Сурхандарьинской области.

KIRISH

Kishilarning asosiy yashash hududlariga aylangan shaharlar ishlab chiqarish va iste'molning ham asosiy hududlari hisoblanadi. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini mustahkamlash, bozor munosabatlarini amalga oshirish, hamda ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish va boshqarishda shaharlarning ahamiyati katta. Urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo'lishiga shaharlarda sanoatning o'sishi, shaharlarning jamiyat hayotida madaniy va siyosiy rolining oshishi, hududiy mehnat taqsimotining kuchayishi sabab bo'ldi.

ASOSIY QISM

Surxondaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Viloyatning shaharlari aholi sonining o'sishi, infratuzilma rivoji va zamonaviy shaharsozlik tendensiyalari bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizning eng chekka janubida joylashgan Surxondaryo viloyati o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'ringa ega. Hudud uch qo'shni mamlakatlar (Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston) bilan chegaradosh. Respublika doirasida birgina Qashqadaryo viloyati bilan baland tog'lar orqali tutashgan. Surxondaryoning bunday o'ziga xos »siyosiy geografik o'rni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida (1992-y.) viloyat shaharlar geografiyasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Hudud shaharlar to'ri birdaniga 5 ta (Angor, Do'stlik, Sariq, Hurriyat va Elbayon)ga kengaydi va bu mintaqada zamonaviy transport-stansiya, razyezd hamda boshqa kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi va yangi yerlarni o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

1992 yil 30 aprelda Surxondaryo viloyati hududida shahar tipidagi posyolkalar va qishloqlar tashkil etildi. Shahar tipidagi posyolkalarga: Angor tumanida – Angor; Denov tumanida Xayrabod; Lenin yo‘li tumanida Lenin yo‘li; Sho‘rchi tumanida Elbayon; Qumqo‘rg‘on tumanida Navobod posyolkalari; yangi qishloqlarga: Angor tumanida Zang va Birinchi may; Boysun tumanida Avlod; Denov tumanida Bandixon va Yangizamon; Jarqo‘rg‘on tumanida Chorjo‘y; Qumqo‘rg‘on tumanida Boymoqli, Ketmon, Kirshak; Lenin yo‘li tumanida Olmazor, va Mehnatobod; Oltinsoy tumanida Chep va Xo‘jasoat; Termiz tumanida Xotinrabod; Uzun tumanida Oqostona va Xonjizza; Sho‘rchi tumanida Dalvarzin kiritildi[4].

1992 yil 29 iyulda Uzun aholi punkti Uzun tumaniga bo‘ysunuvchi shahar darajasiga o‘tkazildi. Shu munosabat bilan hozirgi Uzun markazi yangi Ro‘zg‘or aholi punktiga ko‘chirildi[5].

1992 yil 25 avgustda Lenin yo‘li tumanidagi Lenin yo‘li qo‘rg‘onining nomi Sariq, tuman nomi esa, Qiziriq deb, Gagarin tumanining nomi Muzrabot deb o‘zgartirildi[6].

Janubiy mintaqada shaharlashuv darajasi muntazam ortib bormoqda. 2016-yilda respublikada o‘rtacha urbanizatsiya darajasi Surxondaryoda 35,7 % teng bo‘ldi.

Surxondaryoda 2017-yil ma‘lumotlariga ko‘ra 8 ta shahar va 114 ta shaharchalar qayd etilgan. Viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar Termiz va Denov. Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar esa 6 ta (Boysun, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Sharg‘un, Sherobod). Ularda 877.6 ming kishi yoki jami aholining 35,6 foizi yashaydi (taqqoslash uchun, 2008 yilda urbanizatsiya darajasi Surxondaryoda 19,1 % bo‘lgan) [1:121].

Viloyat shahar manzilgohlarining hududiy tarkibiga e‘tibor bersak, eng ko‘p shaharlar soni Denov va Qumqo‘rg‘on tumanlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur tumanlarda viloyatdagi shaharlarning qariyb 1/4 qismi joylashgan. 2009-yildagi urbanistik o‘zgarishlardan so‘ng mintaq shaharchalari soni yana 107 taga ko‘paydi (respublika yangi shaharchalarining 10,7 %). Bunday agrosaharchalarning eng ko‘pi Oltinsoyda (14 ta), Denov va Angorda (11 tadan), Qumqo‘rg‘on va Muzrabotda (10 tadan) kuzatiladi. Ayni vaqtda ularning eng kam miqdori Bandixon tumaniga to‘g‘ri kelib, bu yerda birgina tuman markazi Bandixon shaharcha maqomini olgan, xolos. Biroq, yirik 120 qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomini berilishi, mintaq iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatmadi. Buning boisi, mazkur shaharchalarning kelgusi taraqqiyotida ko‘proq aholi soni asos qilib olindi va ularning aksariyati shaharcha mezonlariga unchalik javob bermaydi. Shaharlarning ma‘lum hududda vujudga kelishida bevosita shu joyning geografik o‘rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti va albatta, iqtisodiy imkoniyatlariga (transport, foydali qazilmalar, aholi va mehnat resurslarining to‘planishi, ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari va boshqalar) bog‘liq.

Surxondaryo shahar aholi manzilgohlarining zichligi, hududiy urbanistik tarkibiga ko'ra boshqa mintaqalardan ancha farq qiladi. Hudud aholi manzilgohlari joylashuvini markazdan shimoli-sharq tomonga yo'nalgan transport yo'llari (Termiz-Denov yo'nalishi) hamda daryo vodiylari (Surxondaryo, Sheroboddaryo) belgilab beradi. Mintaqa shaharlar to'rida yangi o'zlashtirilgan Surxon-Sherobod massivi yaqqol ko'zga tashlanadi[1:123].

Mintaqadagi mavjud shaharlarning aksariyati tuman markazlari yoki agrosaharcha funksiyasiga mos keladi. Yoqilg'i-energetika, qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari respublika mehnat taqsimotidagi o'mini ifodalab beradi. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hamda ko'rsatilgan xizmatlarda Surxon sanoat rayoni shaharlari – Termiz, Denov, Jarqo'rg'on, va Sho'rchi shaharlari yetakchilik qiladi.

Surxondaryo viloyati respublikada sanoat mahsulotlarining hajmi, tarkibi, ixtisoslashuv va mujassamlashuv jihatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. 2014-yil ma'lumotiga ko'ra, mintaqa respublika sanoat mahsulotining atigi 1,9 foizini yetkazib bergan (shaharlashuv darajasi 34 foiz).

Mintaqa hududiy urbanistik tarkibidagi eng yirik shahar Termizdir. Termiz shahri viloyat markazi sifatida asosiy iqtisodiy, transport va madaniy markaz hisoblanadi. Bu shahar hududdagi ko'plab sanoat korxonalari, savdo markazlari va xizmat ko'rsatish sohasi uchun asosiy tugun vazifasini bajaradi. 2015-yil 19-mart kuni Termiz shahrida «Surxon Termiz Chinni» zavodi ishga tushirildi. Korxona yiliga 14 turdagi sakkiz million donagacha chinni buyumlarni tayyorlaydi. Unda 150 nafar ishchi ikki smenada ishladi. 2017-yilga kelib zavod kuniga 18 mingga yaqin chinni idishni ishlab chiqarishga erisha oldi. 2017-yilning o'zida Afg'onistonga 35 000 AQSh dollari, Tojikistonga 21000 AQSh dollariga teng mahsulot sotildi. 2018-yilning o'zida Tojikistonga 150 ming AQSh dollariga teng mahsulot eksport qilindi[2:67].

2017 yilda Termiz shahridagi temir yo'l kasalxonasining qurilishi tugallanmagan 4 qavatli binosi "ZIF TEXTILE" MChJga 16 milliard so'm investitsiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatda berilgan edi. Bu yerda amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlariga 16,6 million dollar sarflandi. Uning 10 million dollari bank kreditlariga to'g'ri keldi. Ushbu mablag'larga Germaniya, Italiya, Turkiyadan zamonaviy tikuv uskunolari olib kelindi[8].

Denov shahri viloyatdagi ikkinchi eng rivojlangan hudud bo'lib, uning urbanizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan o'smoqda. Shaharda yangi uy-joy qurilishi, zamonaviy xizmat ko'rsatish markazlari va yo'l infratuzilmasi rivojlanmoqda. Denov shahar aholisining 9,6 foizi, yalpi sanoat mahsulotining 13,1 foizi va iste'mol mollarinin esa 28 foizini o'zida jamlagan. Denovdagi "Surxonoziqovqat" zavodi viloyatning eng yirik moy ishlab chiqaradigan zavodlaridan biriga aylandi. 2002 yilda sinish arafasiga kelib qolgan zavod o'zini qayta tiklay oldi. 2003 yilda bu yerda 125 ming tonna chigit qayta ishlanib, 22485 tonna qora yog', 19637 tonna oxorlangan yog', 32878 tonna kunjara, 26668 tonna sheluxa, jami 7,3 milliard so'mlik mahsulot ishlab

chiqardi. Bu ko'rsatkich oldingi yildagidan 783,7 mln so'm ko'p edi. Sof foyda 212,9 mln so'mni tashkil etdi. 2004 yilda moy chuchutish texnologiyasini o'rnatish bo'yicha loyihalash ishlari tugallandi[9].

Shaharda faoliyat yuritayotgan "Denov vino-araq" HJ, "Denov yog'-ekstraksiya" OAJ, sut, konserva, momiq-paxta fabrikasi, paxta tozalash korxonalarining ulushi yuqori.

Sho'rchi shahri sanoat mahsuloti va xalq iste'mol tovarlarini aholining hududiy mujassamlashuv darajasiga qaraganda ancha ko'p ishlab chiqaradi. Ushbu ko'rsatkichlarning asosiy qismi shaharda joylashgan "Sho'rchi don mahsulotlari" OTAJ hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu ikki shahar asosan yengil sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan, buni ularning iste'mol tovarlaridagi hissasidan ham ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, sanoat asosiy shahar hosil qiluvchi omil sanalgan Jarqo'rg'onda "Jarqo'rg'onneft" korxonasi, Boysun va Sharg'unda yoqilg'i sanoati, Lalmikorda neft sanoati va To'palang GESni keltirish mumkin.

2007-yil 24-avgustda ishga tushirilgan «Toshguzar-Boysun-Qumqo'ron» temir yo'l liniyasi O'zbekiston Respublikasi janubida temir yo'llarning yagona tarmog'ini yaratish imkonini berdi. 223 kilometr uzunlikdagi temir yo'l 37 ta ko'prik, galereyani birlashtiradi, Hisor tog' tizmasini dengiz sathidan 1800 metr balandlikda kesib o'tadi hamda nafaqat Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini birlashtiradi, balki ushbu vohani mamlakat poytaxti va boshqa hududlari bilan ham tutashtiradi. Istiqbolda Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li ta'sir zonasida joylashgan qulay geografik o'ringa ega qishloq aholi punktlari hamda yangi shaharchalarning o'sish qutb va markazlari sifatida shakllanish imkoniyatlari katta.

Surxontekstil" to'qimachilik fabrikasi Jarqo'rg'onning yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Mustaqillikning ilk yillaridayoq fabrika kengayib ko'plab kishilarni ish bilan band qildi. 1993 yili fabrikada 600 nafarga yaqin kishi mehnat qildi. 1994 yilda "Surxontekstil" fabrikasi qoshida atlas to'qish sexi ishga tushirildi[3:63].

Jarqo'rg'on shahridagi "Surxontekstil" aksiyadorlik jamiyati 2000 yilda 1 145 355 ming so'mlik tovar ishlab chiqarib, oldingi yilga nisbatan 101 foiz o'sishga erishdi. Kalava ip ishlab chiqarish 1602 tonnani tashkil etib, 102 foiz, xom surp ishlab chiqarish 8866 ming pogon metrni tashkil etib, 101 foizga o'sdi. Ishlab chiqarilgan xom surpdan 629 000 AQSh dollar miqdoridagi mahsulot Chexiya, Germaniya, Polsha, Rossiya singari davlatlarga eksport qilindi[7]. Yil yakuni bo'yicha olingan daromad 120 mln so'mni tashkil etdi. Bu foydadan 33 983 ming so'mi ishchilarga dividend tariqasida berildi. Nominal qiymati 500 so'mlik bo'lgan har bir aksiyaga 420 so'mdan to'g'ri keldi. Oshxonada ishchilar uchun 50 % li arzonlashtirilgan ovqatlar berish yo'lga qo'yildi[7].

Transport infratuzilmasining shahar hosil qilish xususiyati Boysun, Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlari shaharlar to'rlining kengayishiga olib keladi.

XULOSA

Surxondaryo viloyatida shaharlashuv jarayonlari barcha hududlarda bir xil emas. Termiz va Denov kabi yirik shaharlarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Urbanizatsiyani jadallashtirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda agrosanoatni rivojlantirish orqali urbanizatsiya jarayonini jadallashtirish uhim ahamiyat kasb etadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyeva. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.-T.: «Barkamol fayz media», 2018. –B. 122.
2. Mamarajabov G'.A. O'zbekistonning janubiy hududlarida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi va uning natijalari (1991-2020 yillar misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2023. –B. 67.
3. Radjabova S. B. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarining tutgan o'rni (1991-2020 y). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. –Termiz, 2023. –B. 63.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 29-ish, 45-46 varaqlar.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 31-ish, 155-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 32-ish, 90, 97, 106-varaqlar.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 1080-ish, 58-59 varaqlar.
8. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil 2 may. №90 (7320).
9. "Xalq so'zi" gazetasi, 2004 yil 18 mart, №54-55 (3328-3329). –B. 1.